

---

## QALBNI TARBIYALAYDIGAN MASKAN

O'zbekiston tumanidagi 23-bolalar musiqa va san'at maktabida bugun 373 nafar o'g'il-qizga 55 nafar tajribali murabbiylar saboq bermoqda. 10 ta yo'nalishda tahsil olayotgan o'quvchilarning viloyat va mamlakat miqyosida erishayotgan yutuqlari tahsinga sazovor.

Xususan, o'tgan yillarda maktabning faol o'quvchilaridan Jasurbek Asqarov doira, Zarinaxon Tursunaliyeva fortepiano yo'nalishida "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivali laureati bo'ldi. Xonandalik sinfi o'quvchilari Hayotbek Xoliqov, Baxtiyorjon Mahkamovlar "Yagonasan, muqaddas Vatan" ko'rik-tanlovida faxrli o'rinlarni egallashdi. Muhiddin Qori Yoqubov nomli respublika tanlovida esa dutor sinfi o'quvchilari Dilafroz Egamberdieva, Feruza Usmonova, qashqar rubobi sinfi o'quvchisi Faryozbek Rasuljonovlar g'oliblikka erishdilar.

**Madaminjon SOLIJONOV.**

**Suratda: maktab direktori Nargizaxon Po'latova o'quvchilar bilan mashg'ulot paytida.**

2017-10-26 18:02:11